

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

2-son
(Maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

- 4** Oliy ta'limda kredit-modul tizimi – ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasidir



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- Sh. Mardonov, O. Jabborova 6** Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari
- A. Abdullayev 9** Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya darslarini sog'lomlashtirishga yo'naltirish metodikasi
- D. Maxmudova 12** Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash muammosiga nazariy yondashuvlar
- M. Musurmonova 16** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida ta'lim sifatini oshirishda "Matematika" fanining ahamiyati
- R. Musurmanov, M. Musurmonova 20** Umumiy o'rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xususida
- F. Ochilov 23** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy faoliyatini takomillashtirishda "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarining ahamiyati
- B. Axmadaliyev 27** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik bilimlarini va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda texnologik ta'lim darslarining ahamiyati
- G. Tojiboyeva, Z. Suleymanova 31** Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarining roli
- U. Shermatova 35** Millat ruhini saqlash yo'lida
- F. Atabekov 39** Bola tafakkurining rivojlanishida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'imi
- O. Jabborova 43** Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning pedagogik muammolari
- M. Achilova 46** Shaxsning jismoniy, psixologik rivojlanishida pedagogikaning roli
- D. Po'latova 50** Xalq ta'limi tizimida "Barkamol avlod" maktablari
- Z. Umarova 54** Ta'lim muassasalaridagi nizolarni hal qilish



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- M. Abdullayeva 57** Pedagogik va tarbiyaviy ishlar metodikasi
- G. Kuzmanova, B. Alimov, N. Beketov 61** Uchinchi tartibli tenglamalar
- X. Gulyamova 65** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish metodikasi
- R. Nosirova 69** Maktabgacha ta'limda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi metodlarni qo'llash orqali bolalarni maktabga tayyorlash



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- D. Mutalova 73** Ta'lim klasteri talabalarni innovatsion kasbiy tayyorlashning innovatsion asosi sifatida
- L. Boliyeva 76** Oliy ta'limda "Steam" texnologiyasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari

Fariddun OCHILOV,
Chirchiq davlat pedagogika instituti
“Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING AMALIY FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA “ATROFIMIZDAGI OLAM” VA “TABIATSHUNOSLIK” DARSLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada “Atrofimizdagi olam” va “Tabiatshunoslik” darslarida kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining amaliy faoliyatini takomillashtirish, tabiat hodisalariga nisbatan subyektiv munosabatlarini tartibga solish hamda tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Kompetensiyaviy yondashuv, tayanch kompetensiyalar, tabiiy-ilmiy bilimlar, ijodiy faoliyat, o‘quv jarayoni, atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik.

В статье рассматриваются возможности усовершенствования практической деятельности младших школьников, на основе компетентного подхода регулирования их субъективного отношения к природным явлениям и приобретения естественнонаучных знаний уроках “Окружающей нас мир” и “Природоведение”.

Ключевые слова. Компетентный подход, базовые компетенции, естественные науки, творческая деятельность, учебный процесс, окружающей нас мир, природоведение.

The article discusses the possibilities of improving the practical activities of primary schoolchildren, on the basis of a competent approach to regulate their subjective attitude to natural phenomena and the acqu “Natural Science”.

Key words. Competent approach, basic competencies, natural sciences, creative activity, educational process, the world around us, natural science.

Kompetensiyaviy yondashuv g‘oyasi – ta‘limning qanday natijasi shaxs uchun zarurligi va jamiyat tomonidan talab qilinayotganligi haqidagi savolga javoblardan biridir. Ta‘lim oluvchilarning kompetentligini shakllantirish bugungi kunda ta‘limning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib, kompetensiyaviy yondashuvga esa, sifatli ta‘limga bo‘lgan talabning kuchayishi va an’anaviy yo‘l bilan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlar hajmini ko‘paytirish hisobiga erishib bo‘lmasligi bois yuzaga kelgan muammoli vaziyatdan chiqish yo‘li sifatida qarash mumkin.

“Atrofimizdagi olam” va “Tabiatshunoslik” darslarida kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish o‘quvchilarning muvafaqqiyatli rivojlanishlarini ta‘minlaydi. Bu jarayonda o‘quvchilar fanga oid nazariy bilimlar va kompetensiyalarni egallash bilan bir qatorda, ulardan hayotiy tajribalarida foydalana olish layoqatini egallaydilar. Fanga oid kompetensiyalar darslarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni tanish va notanish vaziyatlarda qo‘llashlari uchun qulaylik yaratadi.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida o'quvchilar “Atrofimizdagi olam” va “Tabiatshunoslik” darslarida aniq bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtiribgina qolmasdan, balki tabiat va inson munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan amaliy faoliyat tajribalarini ham bosqichma-bosqich egallaydilar.

Tabiiy-ilmiy bilimlarni o'rganish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida hosil qilinadigan kompetensiyalar va ularning tavsifi, o'quvchilarda shaxsiy tajribani hosil qilishdagi o'rni quyidagicha:

1. “Atrofimizdagi olam”, “Tabiatshunoslik” va boshqa fanlar orasidagi aloqadorlik asosida shakllantiriladigan kompetensiyalar.

Mazkur kompetensiyalar o'quvchilarda “Atrofimizdagi olam” va “Tabiatshunoslik” darslarida tabiiy-ilmiy bilimlarni o'zlashtirish orqali shakllanadi. Mavjud konsepsiyalarga tayangan holda tabiiy-ilmiy bilimlar mazmunini tanlash, ularni hayotda qo'llash imkonini beradigan, o'quvchilarda atrof-olam haqidagi tasavvurni hosil qiladigan, uni bilish hamda amaliy faoliyatda qo'llash jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish nuqtayi nazaridan qaraladi.

O'quvchilarda atrof-olamga nisbatan qiziqish fanga oid bilimlarni faol qo'llash ko'nikmalarining shakllanganligida namoyon bo'ladi. Tabiiy-ilmiy bilimlarga qadriyat sifatida yondashish, olamni bilish va anglash vositasi sifatida munosabatda bo'lish tajribasini shakllantiradi. Bunda o'quvchilar o'quv jarayonining maqsadi atrof-olam bilan bog'liq hodisalarni o'rganish va o'z faoliyatida qo'llashdan iborat ekanligini bilib oladilar.

Boshlang'ich sinfda o'rganiladigan tabiiy-ilmiy bilimlar o'quvchilarni olamni yaxlit idrok etishga undaydi. Buning natijasida, o'quvchilarda tabiiy-ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan individual yondashuv va hissiy-qadriyatli faoliyat tajribasi hosil bo'ladi. Atrof-olamga moslashish uchun o'quvchilar ta'limning ilk bosqichlaridan boshlab, mustaqil harakatlanish, tabiat bilan ongli muloqot o'rnatish, tabiat hodisalarining mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash layoqatiga ega bo'lishlari lozim.

Tabiiy-ilmiy bilimlar darslikdagi o'quv materiallari, illyustratsiyalar, topshiriqlar va audio-video vizual vositalar orqali o'quvchilarga taqdim etiladi. Ushbu jarayonda tabiatdagi ranglarni aniq ifodalash hodisalarni to'liq tavsiflash, o'quvchilarda tabiatga nisbatan to'g'ri munosabat va aniq tasavvurni shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Tabiiy-ilmiy bilimlarni qamrab olgan o'quv materiallarida fanlararo aloqadorlik ham ta'minlanishi kerak.

2. Fanlararo aloqadorlik asosida shakllanadigan tayanch kompetensiyalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari atrof-olamni chuqur o'zlashtirishlari uchun tabiiy-ilmiy bilimlarning fanlararo aloqadorlik asosida ifodalanishi ham juda muhimdir. Bu usul yordamida ular ko'proq tabiiy-ilmiy bilimlarga va ular yordamida shakllanadigan faoliyat tajribasiga ega bo'ladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari amaliy faoliyat tajribasiga ega bo'lishlari uchun faqat bu bilimlarning o'zi yetarli emas. Buning uchun boshqa o'quv predmetlari tarkibida o'rganiladigan umumiy bilimlar va faoliyat usullarini ham o'zlashtirish, “Atrofimizdagi olam” va “Tabiatshunoslik” darslarida ulardan samarali foydalanish ehtiyoji mavjud.

Ma'lum faoliyat usullarini amalga oshirish tajribasini orttirish bilimlar orqali egallangan faoliyat usullarini qayta-qayta, takror bajarishni talab qiladi va bu jarayonda ushbu bilimlar ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga aylanadi. Ta'lim mazmuniga faoliyat usullari, asosan, faoliyatni takrorlashga qaratilgan vazifalar – muayyan harakatlarni yangilash va takrorlash bo'yicha topshiriqlar shaklida kiritiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy bilimlarni o'rganish natijasida hosil

bo'lgan kompetensiyalar ma'lum faoliyat usullarini o'zlashtirish orqali mustahkamlanadi. Ular o'z ichiga belgilangan me'yorlarni bajarish, faoliyat qoidalariga amal qilish, umumiy ko'nikma va malakalar tizimi, tashqi hamda ichki ko'nikma va malakalarni bajarishga tayyorlikni qamrab oladi. Integratsiyalashgan ko'nikma va malakalarni shakllantirish orqali o'quvchilarning ta'lim mazmunini samarali o'zlashtirishlari ta'minlanadi hamda hozirda va kelajakda uzluksiz mustaqil ta'lim olishlari uchun sharoit yaratiladi. Bu esa ularni istiqbolda uzluksiz tarzda mustaqil bilim olishga rag'batlantiradi.

Bilim, ko'nikma, malakalar mahsuli bo'lgan kompetensiyalar o'quvchilarning jadal ijtimoiylashishlariga ko'maklashadi. Bilim, ko'nikma, malakalarning kompetensiyalarga asos bo'lishi A.V. Xutorskiy, I.A. Zimnyaya, I.Y. Lerner, M.S. Kagan, M.M. Potashnik, o'zbek olimlari U.I. Inoyatov, R.X. Djurayev, X.F. Rashidov, N.Sh. Turdiyev, Y.M. Asadov, M.M. Vaxobov, A.A. Nosirov, S. Akbarova kabi qator mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan.

3. Tabiat bilan bog'liq ijodkorlik sohasidagi tayanch kompetensiyalar.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi ta'lim jarayonida faqat qayta-qayta takrorlanuvchi vazifalarga emas, balki vujudga kelgan yangi muammolarga ham yechim topishi nazarda tutiladi. Bunday muammolarni yechish jarayonida istiqbolda amalga oshiriladigan faoliyat usullarini o'zlashtirish, ularni yangi vaziyatlarga ko'chirish, ya'ni ijodiy faoliyat tajribasi hosil qilinib, u o'quvchilarning atrof-olamni estetik idrok etishini nazarda tutadi. Ushbu tajriba o'quvchilarning tabiatni estetik idrok etish bilan bog'liq faoliyatlari, tajribalarida namoyon bo'ladi. Ta'lim mazmuniga ijodiy faoliyat tajribasi, asosan, matnga doir ijodiy topshiriqlar shaklida kiritiladi.

Olimlar tomonidan ijodkorlikning turli o'ziga xos xususiyatlari, shart-sharoitlari farqlanadi va aynan ularda ushbu faoliyat o'z aksini topadi. Ba'zi mutaxassislar uni ijod mahsulining yangiligiga ko'ra tavsiflaydilar, boshqalar esa ijodkor shaxsning xarakterli xususiyatlarini e'tirof etadilar, uchinchilari – ta'lim olish usullari yoki faoliyatning emotsional jihatiga ko'ra, ayrimlar – protsessual tavsifga ko'ra yondashadilar. Masalan, Z.I. Kalmikova ijodiy tafakkurning, fikrning originalligi, kommunikativ aloqalarning paydo bo'lish tezligi, obyektning yangi noodatiy funksiyalarini topish qobiliyati kabi sifatlarini ajratib ko'rsatgan. Tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o'rgatishda "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarida tashkil etiladigan muammoli vazifalar muhim ahamiyatga ega. Bunday vazifalarni yechish jarayonida o'quvchilar qo'yilgan muammolarni yechish tajribasini o'zlashtirishlari lozim. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad o'zlashtirilgan bilimlarni o'zining shaxsiy tajribasida qo'llab, amaliy faoliyatiga singdirishdan iborat.

Qo'yilgan muammolarga yechim izlash davomida o'quvchi bir yoki bir nechta ijodiy faoliyatni amalga oshiradi. Jumladan, muayyan o'simliklarning rasmlarini chizadi, tabiat manzaralarini tasvirlaydi. Natijada, ushbu darslarda o'quvchilar hamkorlikdagi ijodiy faoliyat tajribasini egallaydilar, mavzu o'quvchilarning xotirasida uzoq saqlanadi va yangi mavzuni o'zlashtirishda ham tanqidiy, tahliliy yondasha oladilar.

"Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarida o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini takomillashtirish maqsadida muammoli hamda evristik xarakterdagi topshiriqlarga alohida o'rin ajratish lozim. Mazkur darslarda o'quvchilarga "Qushlar bizning do'stimiz", "Yurtim tabiatini sevaman", "O'simliklar – toza hayot manbai" mavzularida referatlar yozdirish, bahs-munozara daqiqalarini tashkil etish mumkin.

4. Tabiiy-ilmiy bilimlarga oid his-tuyg'ular va qadriyatlar sohasidagi tayanch kompetensiyalar.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan holda “Atrofimizdagi olam” va “Tabiat-shunoslik” darslarida o'quvchilarda hissiy-qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish o'quv materiallarini tizimlashtirishga nisbatan innovatsion yondashuvni talab qilmoqda. Shu asosda boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantiriladigan emotsional-qadriyatli faoliyat tajribasining ayrim jihatlarni rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi:

– o'quv materialining qadriyatlarni taqdim etishga yo'naltirilgan mazmuni ta'lim oluvchilarning tabiat va atrof-olamga oid real dunyoqarashi, u bilan bog'liq qadriyatlarni anglashi, maqsadli xatti-harakatlarni bajarishi, turli nuqtayi nazarlardan maqbulini tanlay olishi, o'z faoliyati natijasini oldindan ko'ra olishi, turli voqea-hodisalarni, o'zi va o'zgalarning fikrlari, xatti-harakatlarini baholay olishi, shaxsiy kompetensiyalari chegarasini tushunishi, hayotiy hodisalarga o'z munosabatini bildira olishi, ya'ni mustaqil tanlovni amalga oshirishini ta'minlash;

– umummadaniy jihat: tabiat boyliklariga nisbatan qadriyatli munosabatda bo'lish; o'quvchilarning bo'sh vaqtini tabiatdan zavqlanishga undash maqsadida samarali tashkil etish va boshqalar;

– tabiat bilan samarali muloqot o'rnatish: tabiat va inson o'rtasidagi munosabat qoidalarini bilish, tabiat qo'ynida o'tkaziladigan ta'limiy, tarbiyaviy tadbirlarda guruhda ishlash ko'nikmasiga ega bo'lish, tabiatga nisbatan salbiy xatti-harakatlarni nazorat qilish va bartaraf etish, o'zini tabiiy borliqning bir qismi deb bilish va boshqalar;

– ijtimoiy-madaniy jihat: tabiiy boyliklarni iste'mol qilishda muayyan me'yorlarga asoslanish, tabiat qo'ynida harakat qilganda sog'lom turmush tarzi qoidalariga amal qilish, mehnat va oilaviy farovonlikni ta'minlashda tabiat va atrof-muhit imkoniyatlaridan foydalanish, tabiatni e'zozlash o'z fuqarolik burchi ekanligini anglab yetish;

– shaxsning tabiat bilan aloqadorlikda o'z-o'zini rivojlantirish jihati: o'zini jismoniy, ma'naviy, intellektual rivojlantirish usullarini o'zlashtirish, zaruriy shaxsiy sifatlarni rivojlantirish va sog'lom turmush tarzi me'yorlariga rioya qilish, o'zini chegaralash layoqatini, tashqi sharoitlarga nisbatan mustaqil pozitsiyani egallash layoqatini rivojlantirish.

Emotsional-qadriyatlar sohasidagi kompetentlik mazmuni bolaning his-tuyg'ulari, uning qadriyatlari tizimiga kirgan muayyan tabiiy hodisalarga yo'naltirilganligini asoslovchi ehtiyojlaridan tashkil topadi. Mazkur kompetentlik mazmunining o'ziga xosligi tabiat va uning hodisalariga nisbatan his-tuyg'ularning boyligi va jadal rivojlanishida namoyon bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ushbu kompetensiyalar o'quvchi ehtiyojlarining uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi, uni tabiat hodisalari bilan bog'liq faoliyat shakllarini amalga oshirishga undaydi. Tabiat hodisalariga nisbatan subyektiv munosabatini tartibga soladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Калмыкова З.И., Кулагина И.Ю. (ред.) *Отстающие в учении школьники: Проблемы психического развития.* – М., 1986.

2. Лернер, И.Я. *Развивающее обучение с дидактических позиций.* Москва. Педагогика. – 1996 . – С.148.

3. Н.А.Менчинский, М.И.Моро. *Вопросы методики и психологии обучения арифметике в начальных классах.*– Москва. 1995 г. С. 56.

4. Ochilov F.I. *Competitional approach among teaching in primary classes // Eastern European Scientific Journal. – Düsseldorf – Germany, 2018. – Ausgabe. № 4. – P 233-236. ISSN 2199-7977 (13.00.00 №1).*